

MILLIY O'YINLAR ORQALI OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINI
MUSTAHKAMLASH HAMDA ULARNING JISMONIY QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH

Niyazov Askarbay Tolibayevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat va sport kafedrası

Kafedra mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor.

Tagabergenov Nurasil

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

“Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi”

mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20356514>

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy o'yinlarning oilaviy tarbiya tizimidagi o'rni, ayniqsa ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy o'yinlar orqali bolalarning jismoniy rivojlanishi, chaqqonlik, epchillik va chidamlilik kabi sifatlarning shakllanishi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari milliy o'yinlarning nafaqat madaniy meros sifatida, balki samarali pedagogik vosita sifatida ham muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy o'yinlar, oilaviy tarbiya, jismoniy rivojlanish, ota-ona va farzand munosabatlari, pedagogika.

Abstract. This article analyzes the role of national games in the system of family upbringing, especially their importance in strengthening relationships between parents and children. It also examines the development of children's physical abilities such as agility, dexterity, and endurance through national games. The results of the study show that national games are important not only as a cultural heritage but also as an effective pedagogical tool.

Keywords: national games, family upbringing, physical development, parent-child relationships, pedagogy.

Аннотация. В данной статье анализируется роль национальных игр в системе семейного воспитания, особенно их значение в укреплении отношений между родителями и детьми. Также рассматривается развитие физических качеств детей, таких как ловкость, быстрота и выносливость, посредством национальных игр. Результаты исследования показывают, что национальные игры являются не только культурным наследием, но и эффективным педагогическим средством.

Ключевые слова: национальные игры, семейное воспитание, физическое развитие, отношения родителей и детей, педагогика.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi hamda zamonaviy hayot tarzining o'zgarishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan, oilaviy tarbiya tizimiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar va o'smirlarning ko'proq raqamli texnologiyalar, internet va mobil qurilmalar bilan band bo'lishi ularning jismoniy faolligini kamaytirib, real hayotdagi muloqot ko'nikmalarining susayishiga olib kelmoqda. Bu esa ota-ona va farzand o'rtasidagi bevosita muloqot, birgalikdagi faoliyat va oilaviy yaqinlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Natijada oilaviy tarbiya jarayonini mustahkamlash va bolalarning sogʻlom rivojlanishini taʼminlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunida taʼlimning asosiy maqsadi shaxsning intellektual, maʼnaviy-axloqiy va jismoniy rivojlanishini taʼminlash, shuningdek, sogʻlom turmush tarzini shakllantirish ekanligi belgilangan. Shuningdek, ushbu qonun taʼlim jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishiga alohida eʼtibor qaratadi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida”gi Qonunida fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishi ularning sogʻligʻini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning muhim omili sifatida koʻrsatib oʻtilgan. Bu esa bolalar va oʻsmirlar tarbiyasida jismoniy faollikning oʻrni nihoyatda muhim ekanligini tasdiqlaydi. Milliy oʻyinlar xalqimizning koʻp asrlik madaniy merosi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol oʻynaydi.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, milliy oʻyinlar ota-ona va farzand oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Birgalikda oʻyin jarayonida oila aʼzolari oʻrtasida iliq muloqot shakllanadi, oʻzaro ishonch va mehr-muhabbat kuchayadi. Bu esa oilada sogʻlom psixologik muhitni yaratadi hamda bolalarning oʻzini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda bolalarning jismoniy faolligi kamayib, ular koʻproq texnologiyaga bogʻlanib qolmoqda. Shu sababli milliy oʻyinlarni oilaviy tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish, ota-ona va farzand munosabatlarini mustahkamlash hamda bolalarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Milliy jismoniy madaniyatning asosiy koʻrinishlari - bu shaxsiy oʻyinlar, janjallar, afsonalar, rivoyatlar, qahramonlik eposlari, uning oʻz ifodalari raqs va musiqada yaratilgan. Ota-bobolarimiz qoldirgan moddiy va maʼnaviy meros xalq oʻyinlarining paydo boʻlish tarixidan dalolat beradi.¹

Yoshlarni jismoniy tarbiyalash jarayonida xalq harakatli oʻyinlaridan oʻrinli foydalanilsa, oʻyinlarning taʼsirchanligi ham ortadi. Bu mamlakatimiz va millatimizning dunyo miqyosidagi nufuzi yuksalishi uchun katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, xalq yaratgan harakatli oʻyinlar mehnat, turmush tarzi, atrof-muhit tabiati, xalqning madaniy merosi, anʼanalari, urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlar bilan uygʻunlashib, ajoyib mutanosiblikni yuzaga keltiradi.²

Shuni aytish joizki, ijodiy harakat erkinligi ayniqsa xalq oʻyinlarida, jumladan, milliy sport turlarida, harakatli oʻyinlar jarayonida oʻz ifodasini topadi. Bunday oʻyinlar oʻz mazmuni va harakatlarini bajarish shartlariga koʻra boʻlajak sportchiga zarur boʻlgan, yaʼni vaziyatga mos malakalarni rivojlantirishga yoki harakatning yangi usullarini kashf etishga imkoniyat yaratadi.

Jismoniy sifatlarni, maxsus texnik malakalarni takomillashtirishda qoʻllaniladigan jismoniy mashqlar koʻpincha bolalar organizmiga keskinroq va "chuqurroq" taʼsir koʻrsatishi mumkin, natijada charchash holati tezroq yuzaga keladi.

Bu borada xalq oʻyinlari va umuman harakatli oʻyinlar bolalarni charchoqdan chalgʻituvchi tarbiyaviy va ijtimoiy mazmunga ega boʻlgani uchun organizmga ancha yengilroq

¹ Turgʻunov M.M. Oʻzbek xalq milliy harakatli oʻyinlari, ularning pedagogik va fiziologik xususiyatlari. 2-bet. cyberleninka.ru saytidan olingan.

² Milliy va harakatli oʻyinlar. Darslik. T.S. Usmonxoʻjayev va boshqalar. «Iqtisod-Moliya», 2015. 7-bet.

ta'sir etadi. Shunday ekan, bu o'yinlar tanlangan sport turiga xos maxsus malakalarni takomillashtirishda juda qo'l keladi.³

Milliy o'yinlar orqali yosh avlod o'z xalqining qadriyatlarini, urf-odatlarini va an'analari bilan tanishadi. Bu o'yinlar ta'lim jarayonida ham muhim rol o'ynashi mumkin, chunki ular orqali bolalar mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.⁴

“Oq ayiqlar” milliy harakatli o'yini orqali ota-ona va farzand munosabatlarini mustahkamlash hamda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari

“Oq ayiqlar” o'yini xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan kompleks faoliyat turi hisoblanadi. Mazkur o'yinning o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat jismoniy faollikni ta'minlaydi, balki oila a'zolari, xususan ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'yinning mazmuni, qoidalari va tashkil etish usullari pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, unda tarbiya, rivojlanish va ijtimoiylashuv elementlari uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishi kuzatiladi.⁵

Mazkur o'yinni tashkil etish jarayonida maydonning “muz bo'lagi” va “dengiz” kabi ramziy qismlarga ajratilishi bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Bu esa o'yinga syujetli-rolli xarakter bag'ishlab, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ota-onaning “ona ayiq” rolini bajarishi esa pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda kattalar bolalar uchun nafaqat rahbar, balki faol o'yin ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada bolalarda kattalarga nisbatan ishonch, hurmat va yaqinlik hissi shakllanadi.

O'yin jarayonida yuzaga keladigan “Ovga chiqqapman” signali bolalarda tezkor reaksiya, diqqatni jamlash va vaziyatni tez baholash kabi psixik jarayonlarni rivojlantiradi. Bu esa ularning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, harakatli o'yinlar davomida markaziy nerv tizimi faoliyati faollashib, harakat va tafakkur o'rtasidagi muvofiqlik mustahkamlanadi. Shu jihatdan “Oq ayiqlar” o'yini psixomotor rivojlanishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Jismoniy rivojlanish nuqtai nazaridan mazkur o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin davomida bolalar muntazam ravishda yugurish, keskin burilish, tez to'xtash va yo'nalishni o'zgartirish kabi harakatlarni bajaradilar. Bu esa ularning chaqqonlik, epchillik, tezkorlik va koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, uzoq davom etadigan harakatlar chidamlilikni oshiradi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimining faoliyatini yaxshilaydi. Ota-onalar bilan birgalikda bajarilgan jismoniy mashqlar esa bolalarda harakatga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirib, sog'lom turmush tarziga intilishni kuchaytiradi.

Mazkur o'yinning yana bir muhim jihati — ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishidir.

O'yin davomida ushlangan o'yinchilar juftlik hosil qilib, boshqa ishtirokchilarni tutishga kirishadilar. Bu jarayon bolalarda hamkorlik, o'zaro muvofiqlashuv va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Juftlikda harakat qilish bolalardan bir-birini tushunishni, harakatlarini muvofiqlashtirishni va umumiy maqsad sari intilishni talab etadi. Bu esa keyinchalik ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadigan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi.

³ Milliy va harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. M.A.Qurbonova, M.U.Qosimova. Toshkent 2009. 12-bet

⁴ Milliy va harakatli o'yinlarni jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'llashJO Burhonov.B.H. - T.: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti, 2024. 13-bet.

⁵ Расулов Р., Каландаров М. Бошлангич синфларда харакатли уйинлар: Укув кулланма. - Т., 2006 - 95 б.

“Ayiқ, yordamga!” kabi chaqiriqlar esa o‘yin jarayonida muloqotning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu element bolalarda nutqiy faollikni oshiradi, ularni o‘z fikrini ifodalashga undaydi hamda emotsional yaqinlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, ota-onaning ushbu jarayonda faol ishtiroki bolalarda o‘zini qo‘llab-quvvatlangan va himoyalangan his qilishiga olib keladi. Bu esa bolalarning psixologik barqarorligini ta‘minlaydi.

O‘yinning qoidalari ham tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Masalan, o‘yinchilarni tortmaslik, faqat belgilangan hududda harakat qilish, qurshovdan chiqish qoidalariга amal qilish kabi talablar bolalarda intizom, mas‘uliyat va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bu esa ularning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Qoidalarga rioya qilish orqali bolalar jamiyatda mavjud me‘yor va talablarni tushunib boradilar.

Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan qaralganda, “Oq ayiqlar” o‘yini o‘ziga xos kommunikativ platforma vazifasini bajaradi. O‘yin jarayonida yuzaga keladigan quvonch, hayajon va raqobat hissi ota-ona va farzand o‘rtasida umumiy emotsional tajriba hosil qiladi. Bu esa ularning o‘zaro aloqalarini mustahkamlab, oilaviy muhitni yanada iliq va samimiy qiladi. Ota-onaning bolaga teng sherik sifatida munosabatda bo‘lishi esa bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘yinning “Juft bo‘lib tutish” varianti ham pedagogik jihatdan muhim hisoblanadi. Bu shaklda ota-ona va farzand birgalikda harakat qilib, boshqa ishtirokchilarni tutadilar. Natijada ular o‘zaro hamkorlik, kelishuv va strategik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa nafaqat o‘yin samaradorligini oshiradi, balki oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, “Oq ayiqlar” o‘yini kompleks pedagogik vosita sifatida baholanib, u orqali bolalarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi ta‘minlanadi. Eng muhimi, ushbu o‘yin ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, o‘zaro ishonch va mehr-muhabbatni kuchaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, uni oilaviy tarbiya tizimida, maktab va maktabgacha ta‘lim muassasalarida keng qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

“To‘qqiz qumaloq” o‘yini orqali ota-ona va farzand munosabatlarni mustahkamlash hamda intellektual va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash

“To‘qqiz qumaloq” o‘yini Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan qadimiy intellektual o‘yinlardan biri bo‘lib, u bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda oilaviy muloqotni mustahkamlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur o‘yin an‘anaviy ravishda maxsus taxtada o‘ynaladi va unda ikki nafar ishtirokchi qatnashadi. Har bir o‘yinchi o‘ziga tegishli kataklardagi qumaloqlarni boshqarish orqali raqibdan ko‘proq “qozon” yig‘ishga harakat qiladi.⁶

“To‘qqiz qumaloq” o‘yini o‘zining mazmuni va tuzilishiga ko‘ra bolalarning intellektual rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘yin davomida ishtirokchilar har bir yurishni oldindan rejalashtirishi, ehtimoliy natijalarni hisobga olishi va strategik fikrlashi talab etiladi. Bu esa bolalarda mantiqiy tafakkur, tahlil qilish qobiliyati va diqqatni jamlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, ota-onaning ushbu o‘yinda faol ishtirok etishi farzand uchun o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Mazkur o‘yin oilaviy munosabatlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ota-ona va farzand birgalikda o‘yin jarayonida vaqt o‘tkazishi ularning o‘zaro muloqotini kuchaytiradi, ishonch va yaqinlik hissini oshiradi.

⁶ М. Шотаев, «Тоғызқумалақ ойынының алгоритми хэм этюдлары» Қазақстан: Астана-2014, 102-б.

O‘yin davomida yuzaga keladigan muloqot, maslahatlashuv va fikr almashish jarayoni farzandning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ota-onaning bolaga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, uni qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

“To‘qqiz qumaloq” o‘yini bolalarda sabr-toqat, matonat va o‘zini nazorat qilish kabi muhim sifatlarni ham shakllantiradi. O‘yin uzoq davom etishi va murakkab strategiyani talab qilishi sababli, ishtirokchilar o‘z harakatlarini puxta o‘ylab bajarishga odatlanadi. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash va mas‘uliyat hissini rivojlantiradi. Shu bilan birga, yutqazish yoki yutish holatlarini to‘g‘ri qabul qilish orqali bolalar emotsional barqarorlikni ham o‘zlashtiradilar.

Mazkur o‘yinning yana bir muhim jihati — unda milliy qadriyatlar va madaniy merosning aks etishidir. “To‘qqiz qumaloq” o‘yini orqali bolalar o‘z xalqining tarixiy merosi bilan tanishadilar, milliy o‘yinlarga nisbatan qiziqishlari ortadi. Bu esa ularning milliy o‘zlikni anglashiga xizmat qiladi.

Jismoniy faollik nuqtai nazaridan qaralganda, “To‘qqiz qumaloq” o‘yini harakatli o‘yinlarga nisbatan kamroq harakat talab etsa-da, u mayda motorika rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qumaloqlarni qo‘l bilan olish, joylashtirish jarayonlari qo‘l barmoqlari harakatini rivojlantiradi va koordinatsiyani yaxshilaydi. Shu sababli, ushbu o‘yinni harakatli o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirish yanada samarali natija beradi.

Pedagogik jihatdan “To‘qqiz qumaloq” o‘yini o‘quv jarayonida ham qo‘llanilishi mumkin.

U matematik tafakkurni rivojlantirish, sanash, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ota-onalar ushbu o‘yinni uy sharoitida muntazam tashkil etish orqali farzandlarining bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Xulosa

“Oq ayiqlar” va “To‘qqiz qumaloq” o‘yinlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular mazmuni, shakli va ta‘sir doirasi jihatidan turlicha bo‘lsa-da, ota-ona va farzand munosabatlarini mustahkamlash hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashda o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik vositalar hisoblanadi. “Oq ayiqlar” o‘yini asosan jismoniy faollikka asoslangan bo‘lib, bolalarda chaqqonlik, epchillik, tezkorlik va chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, undagi jamoaviylik va hamkorlik elementlari orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi, o‘zaro muloqot kuchayadi va birgalikda harakat qilish malakalari rivojlanadi. Ota-onaning ushbu o‘yindagi faol ishtiroki esa bolalarda ishonch, xavfsizlik hissi va emotsional yaqinlikni mustahkamlaydi.

“To‘qqiz qumaloq” o‘yini esa ko‘proq intellektual rivojlanishga xizmat qilib, bolalarda mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish, tahlil qilish va sabr-toqat kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Ushbu o‘yin jarayonida ota-ona va farzand o‘rtasida yuzaga keladigan muloqot, fikr almashish va o‘zaro maslahatlashuv ularning ruhiy yaqinligini oshiradi hamda oilaviy muhitni yanada mustahkamlaydi. Bundan tashqari, o‘yin bolalarda yutish va yutqazishni to‘g‘ri qabul qilish, o‘z hissiyotlarini boshqarish kabi psixologik barqarorlikni ham rivojlantiradi.

Har ikkala o‘yin birgalikda qo‘llanilganda bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanishi o‘rtasida muvozanat ta‘minlanadi. Bir tomondan, harakatli o‘yin orqali organizm chiniqadi va sog‘lom turmush tarzi shakllanadi, ikkinchi tomondan esa aqliy o‘yin orqali tafakkur va analitik qobiliyatlar rivojlanadi. Bu esa bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Расулов Р., Каландаров М. Бошлангич синфларда харакатли уйинлар: Укув кулланма. - Т., 2006 - 95 б.
2. Усмонходжаев Т.С., Хужаев Ф. 1001 уйин. - Т.: Ибн-Сино, 1990,-350
3. Usmonxodjaev T.S., Abdullaev Sh.A., Soliev A.O., Abdumalikova E.N. Bolalar va o'smirlar sporti asoslari. - Т.: Zamon Poligraf, 2014. - 189b..
4. Turg'unov M.M. O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari, ularning pedagogik va fiziologik xususiyatlari. 2-bet. cyberleninka.ru saytidan olingan.
5. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. T.S. Usmonxo'jayev va boshqalar. «Iqtisod-Moliya», 2015. 7-bet.
6. Milliy va harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. M.A.Qurbonova, M.U.Qosimova. Toshkent 2009. 12-bet
7. Milliy va harakatli o'yinlarni jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'llash: O'quv qo'llanma Burhonov.B.H. - Т.: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti, 2024. 13-bet.
8. М. Шотаев, «Тоғызқумалақ ойынының алгоритми хэм этюдлары» Қазахстан: Астана-2014, 102-б.
9. А.Яқыпбаева, «Ұлттық ойынға шетелдіктердің көңілі алабөтен» Қазахстан: Туркистан-2018